



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sanayeva Raxima Amirqulovna¹, Egamqulova Nodira Abdirazoqovna²

¹SamVXTXQTMOHM kimyo fani o'qituvchisi

²Samarqand shahar 50-maktab kimyo fani o'qituvchisi

Ozon qatlami – hayot qalqoni

16 – sentyabr – xalqaro ozon qatlamini himoya qilish kuni.

Annotatsiya. Ushbu maqola tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarda ozon qatlami haqida va uni himoya qilish, bo'yicha tushunchalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ozon qatlami, havo va suvning ifloslanishi, ichimlik suvi muammosi, ekologik muammolar, ultrabinafsha nurlar, kosmik nurlar.

1995 – yil 16 – sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining fan, ta'lim va madaniyat bo'yicha komissiyasi, ya'ni YUNESCO tomonidan “16 – sentyabr – xalqaro ozon qatlamini himoya qilish kuni” deb e'lon qilingan. Har yili dunyo miqyosida barcha davlatlarning turli tashkilot, korxonalar va muassasalarida, jumladan ta'lim dargohlarida ham ushbu sanaga bag'ishlab tadbirlar o'tkaziladi. Darhaqiqat, ishlab chiqarish va aholi sonining ortishi sababli Ona sayyoramizda tuproq, havo va suvning ifloslanishi kuzatilmoqda, yashil o'simliklar qoplami kamayishi hamda cho'llarning kengayishi sodir bo'lmoqda. Ichimlik suvi muammosi juda dolzarb bo'lib, dunyo aholisining 2,5 milliarddan ortig'i toza ichimlik suviga muhtojdir. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 820 milliondan ortiq kishi ochlik balosiga giriftor bo'lgan.

Ekologik muammolardan eng birinchisi insoniyatni kosmik nurlardan va quyoshning ultrabinafsha nurlaridan himoya qiluvchi ozon qatlamining yemirilishidir. Atmosferaning 25-30 km balandligida 2 atomdan iborat kislorod gazi quyoshning ultrabinafsha nurlari ta'sirida 3 atomdan tuzilgan ozon gaziga aylanadi.



Ushbu jarayon natijasida tabiat va inson uchun halokatli ultrabinafsha nurlarning taxminan 80 % i yergacha yetib kelmaydi. Demak, ozon qatlami yerdagi hayotni himoya qiluvchi qalqon ekan. Insonning xo'jalik faoliyati, texnika vositalari sonining ortishi natijasida o'rmonlar va o'tloqlar maydoni kamayib, ularning o'rnini chakalakzorlar, dasht va cho'llar egallamoqda. Tuproqning turli yo'llar bilan yemirilishi, tuproqda tuz miqdorining ko'payib, sho'rlashib borishi ularning ekin ekish uchun yaroqsiz holga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ko'plab suv havzalari turli chiqindilar tashlanishi oqibatida iste'molga va sug'orishga yaroqsiz holga kelgan. Texnika vositalari, zavod-fabrikalar, turli korxonalar, aholi turar joylaridan chiqayotgan tutunlar, turli gazlar, chang va tuz zarrachalari havo, suv va tuproqning bulg'anishiga olib kelmoqda.

Bu salbiy hodisalarning oqibatida havoda kislorod gazi kamayib, karbonat anhidrid gazi ko'payib bormoqda. Ma'lumki, karbonat anhidrid gazi miqdorining ortishi havo haroratining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. So'ggi 30-40 yil ichida Yerimizning shimoliy va janubiy qutblarida hamda tog'lardagi milliard yillardan beri erimay yotgan qor va muz qatlamlari erib, Yerimizning ko'pgina mintaqalarida ko'plab miqdorda qor, yomg'ir, do'l yog'ishi oqibatida qishloqlar, shaharlar, tumanlar, hatto viloyatlar suv toshqini ostida qolmoqda. Aksincha, boshqa mintaqalarda yog'ingarchilikning bo'lmasligi yoki juda kamligi natijasida o'simlik va hayvonlar nobud bo'lmoqda.

Ozon qatlami yemirilishining oqibati bu bilan chegaralanib qolmaydi. Birinchidan, Yerimizda suv zaxirasining kamayishi oqibatida ichimlik suvi muammosi aksariyat mamlakatlarni qamrab oladi. Ikkinchidan, yuqori harorat, o'z vaqtida yog'ingarchilikning bo'lmasligi, yilning yog'in yog'maydigan fasllarida esa ko'p miqdorda yog'ingarchilikning sodir bo'lishi oqibatida qishloq xo'jalik ekinlari hosilining kamayishi yoki nobud bo'lishiga olib keladi. Ichimlik suvi muammosiga ochlik balosi qo'shiladi. Uchinchidan, quyosh nuri va haroratining ortishi qishloq xo'jalik ekinlari zararkunanda-larining faollashishiga, ko'payishiga, buning oqibatida esa hosildorlikning pasayishiga olib keladi. To'rtinchidan, yuqori harorat (30^o C-dan yuqori) o'rmonlarning o'z – o'zidan yonishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda ham dunyoning ko'plab mamlakatlarida 100 000 gektarlab o'rmonlar yonmoqda yoki suv toshqinlari ostida qolmoqda.

Eng yomoni, kislorod va ozon gazlarining kamayishi natijasida Yerimizga kirib kelayotgan kosmik nurlar va quyoshning ultrabinafsha nurlarining miqdorining ortishi tirik organizmlarda, jumladan mikroorganizmlarda mutatsiyalarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Ma'lumki, mutatsiyalar foydali, zararli va betaraf bo'ladi. Zararli mutatsiyalarning kuchayishi tirik organizmlar, jumladan inson hayotiga xavf soladi. Achinarlisi shundaki, bu xatar xuddi tumov, gripp singari atrofimizda bo'ladi va hech qayerga ketmaydi. Fasllarga qarab, goh kuchayib, goh kamayib turadi.

Yerimizdagi teran fikrli insonlar bu noxush hodisalarga befarq qarab turganlari yo'q. 1999 – yil Buyuk Britaniyada butun jahon olimlarining iqlim o'zgarishlariga bag'ishlangan anjumani o'tkazildi. Bunda ko'plab olimlar ushbu muammoning turli



yechimlarini taklif qilishdi. Hozirgi vaqtda ham turli dasturlar qabul qilingan. Lekin, bu takliflar juda katta mablag'larni talab qiladi. Ona sayyoramizni muqarrar halokatdan asraydigan yana bir usul borki, u boshqa takliflar singari juda katta mablag'larni talab qilmaydi. Bunda faqat Ona sayyoramizni sevadigan, uning kelajaguga befarq bo'lmagan insonlarning harakati kifoya qiladi. Bu usul havoni kislorod gazi bilan ta'minlaydigan yashil o'simliklarning miqdorini ko'paytirish, ekin maydonlarini kengaytirish, cho'llarning kengayishining oldini olish, ya'ni Yerimizni ko'kalamzorlashtirish hisoblanadi. Ona sayyoramiz ekologik holatining yaxshilanushiga har birimiz o'z hissamizni qo'shishimiz lozim bo'ladi. Agar, barcha davlatlardagi hur fikrli insonlar bu xayrli ishga bosh qo'shsalar, o'ylaymizki, bu muammolarning yechimi topilsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.WWW.pedagog.uz
- 2.Asqarov M.,Xatboyev M.Pedagogika .Darslik.T.:Talqin,2008. 289-bet
- 3.Ramade U. Y. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi.T.:Ozb.26-29-betlar
- 4.7-sinf kimyo darsligi 57-58-betlar